

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

GIPERTONIK KRIZDA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM.

Raxmonova Sayyora Normuradovna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o‘qituvchisi

TOLLIBOYEVA BAXTINISO ALQARBOY QIZI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada “ Gipertonik kriz” – arterial qon bosimning bir necha daqiqa yoki soat ichida keskin ko’tarilishi bilan kechuvchi o’tkir patologik holat. Gipertonik kriz aksariyat hollarda serebral, koronar va vegetativ simptomlar bilan namoyon bo’ladi. Mana shunday holat kuzatilganda bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatish ehtiyot choralarini muhokama qilinadi. Gipertonik kriz-arterial qon bosimining keskin ko’tarilishi bilan namayon bo’ladigan kaslliklar qatoriga kiradi. Klinikasi va “Giretonik kriz”ga olib keladigan asosiy sabablari,jumladan, hafaqon kasalligi,o’tkir glomerulonefrit.eklamsiya,buyrak kasalliklari, gipotenziv terapiyani birdan to’xtatish, psixoemosional stress, ortiqcha jismoniy zo’riqish, spirtli ichimliklarni katta miqdorda istemol qilish, meteorologik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatish choralarini yordamida kasallikning aholi o’rtasida qanday kamaytirish mumkinligi bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Gipertonik kriz, arterial qon bosimi,klinik belgilari,shoshilinch tibbiy yordam.

Kirish: Gipertonik krizda shoshilinch tibbiy yordam hozirgi kunda sog;liqni saqlash sohasi xodimlarining muammosi bo’lib kelmoqda. Asosiy sabablari-hafaqon kasalligi, simptomatik AG, o’tkir glomerulonefrit, eklampsiya, buyrak kasalliklari, bosh miya jarohatlari, gipotenziv terapiyani birdan to’xtatish, psixoemosional stress, ortiqcha jismoniy zo’riqish, spirtli ichimliklarni katta miqdorda istemol qilish, meteorologik omillar, sabablarini oldini olish,bemorlarga o’z vaqtida shoshilinch tez tibbiy yordam ko’rsatish choralarini haqida maqolada so’z yuritiladi.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

Materiallar va usullar:

Tadqiqot metodikasi: Zamonaviy ilmiy maqolalar, kasallik holatlari va tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Gipertonik krizda shoshilinch tibbiy yordam mavzusidagi oxirgi zamonaviy davo usullari haqida so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy manbalar o'rGANildi.

Nazariy asos:

Gipertonik kriz vaqtida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish usullari, davolash usullari va profilaktika choralari muhokama qilindi. Asosiy e'tibor zudlik bilan Tez yordam chaqiriladi, arterial qon bosimi o'lchanadi, zamonaviy gipotenziv dori vositalarini qo'llash, EKG olish, har 10–15 daqiqada AQB ni va yurak urishini o'lchab turishga qaratildi.

Arterial qon bosimning normada va arterial gipertenziyaning turli bosqchilaridagi ko'rsatkichlari

Norma va arterial gipertenziya	AQB ko'rsatkichlari (mm sim ust)
Norma	120/80 va undan past
Normaning yuqori chegarasi	130/85 – 139/89
Birinchi darajali arterial gipertenziya	140/90 – 159/99
Ikkinci darajali arterial gipertenziya	160/100 – 179/109
Uchinchi darajali arterial gipertenziya	180/110 mm sim. ust

Amaliy tadqiqotlar: Gipertonik krizda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun ishlataladigan davo usullari o'rGANildi. Xavf omillarini aniqlash va davo

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy tibbiyot texnologiyalarining qo'llanilishi tahlil qilindi.

Natijalar:

Klinik belgilari va diagnostika: Gipertonik krizning asosiy belgisi – bu AQB ning qisqa vaqt ichida keskin ko'tarilishidir. Gipertonik kriz, odatda AQB 160/100 yoki 180/120 mm sim. ust. dan oshgan paytlarda ro'y beradi. Biroq bu ko'rsatkich individual bo'lib, bemorning ishchi AQB iga ko'p jihatdan bog'liq. Masalan, ba'zi bemorlarda gipertonik kriz AQB 240/120 mm sim. ust. ga yetganda ro'y beradi va h.k.Gipertonik krizda zudlik bilan Tez yordam chaqirish tavsiya etiladi.

Birlamchi yordam va davo usullari:

- 1.Arterial qon bosimi o'lchanadi
2. Bemorni tinchlantirish, qulay holatga keltirish, toza havo bilan taminlash.
3. Yurak sohasida og'riq bo'lsa, bemorga til sohasiga validol qo'yish.
4. Qon bosimi o'lchab turiladi, shifokor ko'rsatmasiga asosan, dibazol 1%, magneziy sulfat 25%, papaverin va platifilin 2% li eritmalar jo'natiladi.
5. Zarurat holatlarda bemor venasidan 250-300ml miqdorda qon olib tashlanadi.
6. Bemorni dinamik holati nazorat qilinadi.

Munozara:

Zamonaviy davolash usullarining samaradorligi:Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki,gipertonik krizda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va zamonaviy davo usullari ko'plab asoratlarni oldini olishga imkon beradi.Xususan oz vaqtida ko'rsatilgan shoshilinch tibbiy yordam bosh miyaga subaroxnoidal qon quylishi xavfini kamaytiradi.

Profilaktik chora-tadbirlar:Gipertonik krizni oldini olish uchun birinchi navbatda har bir inson sog'lom turmush tarziga rioxalishi muhim sanaladi,shuningdek, psixoemosional stress, ortiqcha jismoniy zo'riqish, spirtli ichimliklarni katta miqdorda

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

istemol qilmaslik tavsiya etiladi, meteorologik omillar,magnit bo'ronlari kunlarida ortiqcha zo'riqmaslik tavsiya etiladi..

Xulosa:

Arterial qon bosimini zamonaviy davolash usullari samarali natijalar berishi mumkin .Gipertonik krizda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bemorlarda insult xavfinini sezirarli ravishda kamaytiradi.Tibbiyot mutaxasislari tomonida olib borilgan profilaktik chora –tadbirlarini o'tkazish gipertonik krizda kuzatilgan asoratlarni oldini olishda jamoatchilikni xabardor qilish zarur.Shu bilan birga ,sog'lom turmush tarziga rioya qilishga targ'ib qilish ham muhim profilaktik chora hisoblanadi.

Foydalanadigan adabiyotlar:

- 1.Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti www.moodle.sammi.uz sayti.
2. M.N. Mirzayev, I.R. Mavlyanov, O.R. Mirtursunov “Birinchi tibbiy yordam” Toshkent-2005
3. Y.Allayorov, Y.Tojiboyev “ Favqulotta vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari” Toshkent-2014
4. A.K.Jamolov,B.N.Toshmamatov,N.J.Ro'ziyeva,M.A.Rasulova “Tez tibbiy yordam va favqulorra holatlar tibbiyoti” Toshkent-2024
5. A.Gadayev, M.Sh. Karimov,X.S.Axmedov “Ichki kasalliklar propedivkasi”.Toshkent-2012
6. O'.O. Orifov, Sh.N. Karimov “Umumiy xirurgiya” Toshkent-2008 “Yangi asr avlodii”
7. A.M. Ubaydullayev “Nafas organlari kasalliklari” Toshkent-2000